



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 3-son 2025 yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 3-son 2025 yil

UDK: 818.213

BBK: 84.61

B- 29

Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug‘ maqsadimiz – Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratamiz.

Yangi O‘zbekiston – bu, avvalo, yangi iqtisodiy munosabatlar, yangi iqtisodiy dunyoqarash demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev

Все свои силы и потенциал мы направим на достижение нашей общей великой цели - построение нового Узбекистана. Новый Узбекистан – это, прежде всего, новые экономические отношения, новое экономическое мировоззрение.

Президент Республики Узбекистан
Шавкат Мирзиёев

© Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti

© «KLASSIC PRINT» nashriyoti

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 3-son 2025 yil

Ilmiy-uslubiy jurnal 1.09.2022-yildan boshlab chiqa boshlagan, yiliga 6 marta chop etiladi.

Ta’sischi:

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Bosh muharrir

Bosh muharrir o‘rinbosari

Mas’ul kotib

i.f.d., prof. A.Qodirov

DSc, prof. X.X.Rejapov

DSc. K.A.Muxitdinova

Jamoatchilik kengashi:

Prof. I.U.Madjidov (rais), prof. Sh.Toshmatov, PhD E.Yodgorov, i.f.n., dots. A.T.Umarov, i.f.d., prof. A.Qodirov

Tahrir hay’ati:

Prof. Sh.O.Toshmatov, prof. A.Qodirov, prof. A.V.Vaxabov, prof. X.P.Abdulqosimov, prof. F.T.Egamberdiyev, prof. Sh.G.Yo‘ldashev, prof. A.M.Sodiqov, prof. Q.Muftaydinov, prof. K.Ubaydullayev, prof. Q.K.Mambetjanov, prof. I.Y.Umarov, prof. X.X.Rejapov, i.f.d. B.Tagayev, dots. A.T.Umarov, i.f.d. B.B.Baxtiyorov, i.f.d. K.A.Muxitdinova, dots. Sh.S.Nasretdinova, dots. B.B.Mullaboyev, dots. Z.Jumaqulov, dots. N.A.Artiqov, dots. D.I.Ro‘ziyeva, dots. A.Ambartsumyan, dots. R.Abdullayeva, dots. A.Boboyev, dots. N.A.Kudratxodjayeva, dots. M.I.Saidkarimova, dots. D.M.Yakubova, dots. N. Umarova

Tahririyat manzili:

10095, Toshkent - 95, Universitet ko‘chasi, 4. tel: (+99899) 821-20-72

Журнал сайти: <https://journal.econuu.uz>

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligi tomonidan 17.07.2022-yilda № 4715-son bilan ro‘yxatga olingan.

Buyurtma: ISSN 978-9943-5256-3-4

Jurnal OAK ro‘yxatiga 2023 yil 1 iyuldan kiritilgan (OAK rayosat qarori 04.07.2023 yil № 340/5).

Jurnalda ma’lumotlar bosilganda dalillar ko‘rsatilishi shart. Jurnalda chop etilgan ma’lumot va keltirilgan dalilarning aniqligi uchun muallif javobgardir.

“Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti” №3. 2025

MUNDARIJA

Шоҳаъзамий Ш.Ш. Давлат молияси концепцияси ва бюджетнинг миллий иқтисодий ривожланишидаги роли.....	7
Толаметова З.А. Рақамли иқтисодий шароитда меҳнат бозорининг ривожланиши ва уни тартибга солиш.....	16
Мирзахаликов Б.Б. Камбағалликни қисқартириш бўйича давлат дастурлари молиявий таъминоти.....	25
Аллаева Г.Ж., Махмудова Г.Ф. Роль зеленой энергетики в устойчивом развитии экономики Республики Узбекистан.....	29
Daniyarova F.B., Turdibayeva D.R. Resurslardan samarali foydalanish va yashil iqtisodiyot konsepsiyasi.....	34
Ismoilova S.Q. Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xalqaro tajribalar.....	39
Mamadjanov Sh.J. Sug‘urta faoliyatini huquqiy tartbiga solishni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	42
Абдуллоев А.Ж. Миллий иқтисодий таркибини диверсификациялаш даражасини баҳолашнинг методологик асослари.....	45
Муртазаев А.З. Финансовое обеспечение инвестиции на модернизацию предприятий (опыт Самаркандской области).....	51
Kucharov J.O., Fayzullaeva T.R. Qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishning hozirgi holati.....	56
Abdullayeva H.N. Korxonalar faoliyatida innovatsiyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari va innovatsion marketing amaliyotiga o‘tishdagi mavjud muammolar.....	60
Jo‘rayev T.I. Tadbirkorlik sub‘ektlarida biznes jarayonlarni raqamlashtirishda axborot tizimlarining roli va strategik ahamiyati.....	66
Ustadjalilov D.R. The role of facilitators in cluster policy: Towards a unified framework for monitoring and evaluation.....	70
Karimov M.A. Analysis of the organizational and economic status of higher education institutions and comprehensive indicators of rating indicators.....	76
Гайбуллаев Ф. Олий таълим тизимини рақамлаштириш коррупциянинг олдини олишнинг муҳим омилли.....	80
Giyazova N.B., Khabibov Sh.A. Data security in the digital economic environment.....	88
Umurzakova Z.S. Korxonalarda mehnatdan foydalanish ko‘rsatkichlari tahlilining ko‘rinishlari va bosqichlari.....	91
Шарофиддинова Г.Н. Ўзбекистонда аёллар хусусий тadbirkorligini янада ривожлантириш йўналишлари.....	95
Teshayev M.D. Qishloq xo‘jaligi raqobatbardoshligini oshirishning ilg‘or xorij tajribasi.....	99
Zufarova G., Muxtorova B. O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonida AKT sohasidagi zamonaviy ish bilan bandlikni oshirishda kadrlar tayyorlashning ahamiyati.....	103
Isakova N. «yashil ishlab chiqarish texnologiyalari» tushunchasi mohiyati va tamoyillari.....	108
Райханов У.А. Мулкни давлат тасарруфидан чиқаришнинг хорижий мамлакатлар тажрибаси ва ундан Ўзбекистонда фойдаланиш йўллари.....	112
Ибрагимова К.С., Саидова Г.А. Аспекты определения эффективности инноваций в строительстве.....	117
Sauxanov J.K., Amaniayazova R.B. Qishloq aholisining mehnat salohiyatidan foydalanishning nazariy asoslari va o‘ziga xos xususiyatlari.....	120
Madaminov A.M. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda bank tizimining zaruriyati.....	126
Adxamov M. Korxonalarda joriy aktivlar tahlilini takomillashtirishning nazariy jihatlar.....	130
To‘raboyeva K.O‘. Sanoat tarmog‘ida investitsion faoliyat: Tashkiliy jihatlar va islohotlar.....	133
Nazarova A.N. Sanoat korxonalarida “Yashil” ta‘minot zanjirining zamonaviy tendensiyalari.....	138
Kariyeva L.S., Abdumutalova L.M. Tashkilotlarda mehnat resurslari samaradorligini oshirish yo‘llari.....	143
Daniyarova F.B., Raxmonqulova D.I. O‘zbekistonda ishsizlik darajasini pasaytirish yo‘llari.....	147

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 3-son 2025 yil

Тўққизинчидан, жамиятда ижобий кайфият яратилади. Чунки аёллар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш жамиятда ижобий кайфият ва келажакка ишончни шакллантиради. Бундан ташқари, ёшлар учун ўрнак бўладиган кучли аёл лидерлар пайдо бўлади.

Ўнинчидан, бизнес муҳити яхшиланади. Имтиёзлар орқали аёллар тадбиркорлиги ривожланса, умумий тадбиркорлик муҳитида ҳам янги инновация ва ташаббуслар пайдо бўлади. Бу бошқа тадбиркорларга ҳам ижобий таъсир кўрсатади.

Хулоса қилиб айтганда, бундай ислохотлар нафақат аёллар учун, балки мамлакатнинг барча қатламлари учун кенг имкониятлар яратишга хизмат қилади ва иқтисодийнинг янги босқичга чиқишига замин яратади.

Хотин-қизлар бизнеси улкан ва асосан фойдаланилмаётган ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий салоҳиятга эга. Гап шундаки, жамият унинг иқтисодий ва сиёсий барқарорлигини таъминлайдиган ўрта синфнинг салмоқли улуши билан соғлом ва самарали бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Ресубликаси Президентининг 2022 йил 28 январьдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сонли Фармони.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси Тўлдирилган иккинчи нашри. –Т.: «O‘zbekiston» нашриёти, 2023. – 440 бет.
3. Арипов О.А. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда аёлларнинг ўрни. // https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/28_O.Арипов.pdf // “Иқтисодий ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2017 йил.
4. Арипов О.А. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлиқни давлат томонидан тартибга солиш. – Т.: Фан, 2012. – 272 б.

УДК: 332.2

QISHLOQ XO‘JALIGI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILG‘OR XORIJ TAJIRIBASI

ДОСТИЖЕНИЯ В ОБЛАСТИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE IN INCREASING AGRICULTURAL COMPETITIVENESS

Teshayev Mirolim Djumayevich

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola bugungi kunda jahon mamlakatlarida agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsadi mamlakatda yuqori samaradorlikka va raqobatbardoshlik darajasiga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligini shakllantirishdir AQSh, Kanada, Braziliya, Rossiya, Xitoy va Evropa ittifoqining ayrim mamlakatlarida bu turdagi qishloq xo‘jaligi qo‘llab-quvvatlash va uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan dasturlarga ustuvorlik qaratilishi natijasida hozirgi kunda dunyo bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yirik eksporterlariga aylanganliklari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: agrar soha, qishloq xo‘jaligi, keksport, soliq, ichki bozor, , xalqaro munosabatlar.

Целью данной статьи является создание высокоэффективного и конкурентоспособного сельского хозяйства в стране. США, Канада, Бразилия, Россия, Китай и некоторые страны

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 3-son 2025 yil

Европейского Союза стали крупными экспортерами сельскохозяйственной продукции во всем мире в результате определения приоритетности программ, направленных на поддержку этого вида сельского хозяйства и повышение его конкурентоспособности.

Ключевые слова: аграрный сектор, сельское хозяйство, экспорт, налог, внутренний рынок, международные отношения.

This article discusses the economic reforms being implemented in the agricultural sector of countries worldwide, aiming to establish an agriculture system with high productivity and competitiveness. In the United States, Canada, Brazil, Russia, China, and some European Union countries, priority has been given to programs aimed at supporting agriculture and increasing its competitiveness. As a result, these countries have become major exporters of agricultural products globally.

Keywords: agrarian sector, agriculture, export, tax, domestic market, international relations.

Bugungi kunda jahon mamlakatlarida agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsadi mamlakatda yuqori samaradorlikka va raqobatbardoshlik darajasiga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligini shakllantirishga qaratilgan hisoblanadi.

Jumladan, hukumat tomonidan agrar soha tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligida faoliyat olib borayotgan iqtisodiy xo‘jaligi mahsulotlarini sotishda narx siyostini ishlab chiqish, ishlab chiqaruvchilarning ma‘lum bir xarajatlarini qoplash maqsadida subsidiyalar ajratish, ularga soliq imtiyozlari, imtiyozli shartlar asosida ishlab chiqarish kreditlari ajratish, ayrim turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun proteksionizm siyosatini qo‘llash kabi chora-tadbirlar shular jumlasidandir. AQSh, Kanada, Braziliya, Rossiya, Xitoy va Evropa ittifoqining ayrim mamlakatlarida bu turdagi qishloq xo‘jaligi qo‘llab-quvvatlash va uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan dasturlarga ustuvorlik qaratilishi natijasida hozirgi kunda dunyo bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yirik eksporterlariga aylandilar. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda 60 foizga holi band hisoblansa, rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko‘rsatkich 10 foizni tashkil etadi [1].

Qishloq xo‘jaligi raqobatbardoshligi darajasini oshirishning jahon amaliyoti tahlili ko‘rsatishicha, mamlakatlarning xalqaro savdotashkilotiga a‘zo bo‘lishida ularning agrar soha tarmoqlarining barqarorligi, ichki bozordagi muvozanatni ta‘minlash bilan bir qatorda, import o‘rmini bosuvchi va eksport hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasbetadi.

Jumladan, Yevropa ittifoqi (EI) mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish davlat subsidiyasi mexanizmiga asoslanadi. Yelga e‘zo mamlakatlar fermerlari tomonidan ishlab chiqarilgan (etishtirilgan) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy qiymatining o‘rta hisobda 50 foizi davlat subsidiyasi asosida qoplanadi. Shuningdek, ushbu mamlakatlar guruhida mahalliy fermerlar uchun o‘z mahsulotlarini jahon bozoridagi o‘rtacha narxdan yuqoriroq narxda sotish imkonini beruvchi kompensatsion to‘lovlar va tenglashtirilgan soliq siyosati amal qiladi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida bugungi kunda Yelga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligi ta‘minlanishi bilan bir qatorda, ichki iste‘mol bozorida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan to‘liq o‘zini-o‘zi to‘yintira olish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Jahon xo‘jaligida yetakchi mamlakatlardan biri hisoblangan AQSh tabiiy-iqlimiy sharoit jihatidan qishloq xo‘jalini rivojlantirish uchun juda qulay shart-sharoitga ega bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Bunday ustunlik hisobiga AQSh fermerlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish (etishtirish) Yel mamlakatlari fermerlariga nisbatan 1,6-1,7 marta kam xarajat hisobiga amalga oshiriladi.

Shuningdek, ushbu ko‘rsatkich Rossiya fermerlariga nisbatan 2,5marta, Yaponiyaga nisbatan esa 3,0 marta arzon hisoblanadi. Ushbu vaziyatdan kelib chiqqan holda, boshqa davlatlar AQSh hukumatiga nisbatan agrar soha raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish (etishtirish) va ularni sotib olish uchun bir necha baravar ko‘p mablag‘ sarflashadi, degan

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 3-son 2025 yil

xulosaga kelish mumkin bo‘ladi. masalan, Finlyandiya hukumati mahalliy fermerlardan bir tonna bug‘doyni AQShdagi narxga nisbatan to‘rt barobar qimmatiga sotiboladilar. [2]

AQSh qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishda jahon bo‘yicha tabiiy-iqlimiy shart- sharoitlar jihatdan bunday ustunlikka ega bo‘lishiga qaramay, agrar sohaga yo‘naltirilayotgan davlat xarajatlari hajmi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinni egallaydi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan hisob kitob natijalariga ko‘ra, 2001-2019 yillarda AQSh qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan yillik markaziy hukumat xarajatlari hajmi o‘rta hisobda 24,4 mlrd. AQSh doll.ga teng bo‘lgan. Taraqqiy etgan mamlakatlarda agrar sohaning samaradorligi va uning raqobatbardoshligini darajasi (mahsulotlarni qayta ishlash,saqlash,etkazib berish,sotish, fermerlarga moddiy-texnik va moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish) va agrosanoat integratsiyasi hisobiga amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu guruh mamlakatlarida qishloq xo‘jaligining hosildorligi, ishlab chiqarish munosabatlarining samaradorligi, agrar sohaning raqobatbardoshligini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni innovatsion rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan iqtisodiy sub‘ektlarning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish va qishloq joylarning barqaror rivojlanishini ta‘minlashdaagroklastersizatsiyalashga muhim e‘tibor qaratiladi. Agroklastserlarni shakllantirish va ularni rivojlantirish orqali taraqqiy etgan mamlakatlar xalqaro raqobat munosabatlarining kuchayishi sharoitida qishloq xo‘jaligi, ayniqsa, oziq- ovqat xavfsizligi sohasida himoyaviy choralarni ham amalgaoshiradilar. [3]

Jumladan, taraqqiy etgan mamlakatlarda tashkil etilgan yirik integratsion, ko‘p tarmoqli agrosanoat birlashmalari ilg‘or innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda jahon qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yarmidan ziyod qismini ishlab chiqaradilar. Bu turdagi agro xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning mehnat unumdorligi boshqalarga nisbatan 1,5-2,0 barobar yuqori hisoblanib, bir birlikdagi yer maydonida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish uchun talab etiladigan resurslar hajmi 2,0 marta kam bo‘lib, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan (etishtirilayotgan) mahsulotlarning tannarxi sezilarli darajada arzon hisoblanadi. [4] Yevropa Ittifoqi mamlakatlari agroklastersizatsiyalash chora- tadbirlarini amalga oshirish orqali qishloq xo‘jaligida, xususan, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaliklari o‘rtasida kooperatsiyalashuvni rivojlantirishgan. Masalan, Fransiyada bu turdagi kooperatsiyalar 70 foiz cho‘chqa go‘shini yetishtirsa, ushbu ko‘rsatkich Niderlandiyada – 26,0 foiz, Germaniyada esa 25 foizni tashkil etadi. Shvesiyada ham buturdagi kooperatsiyalarda ko‘plab fermer xo‘jaliklari o‘zaro birlashgan bo‘lib, mamlakat hududida jami 18 ta mintaqaviy kooperatsiyalar tashkil etilgan hisoblanadi. Shuningdek, fermerlar haq-huquqlarini himoya qilish va ularni rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Milliy fermerlar kooperativlari birlashmasi” tashkilotituzilgan. [5]

Finlyandiya qishloq xo‘jaligi sohasida kooperativlarni shakllantirish orqali agrobiznes sub‘ektlarining xo‘jalik faoliyati yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlashni maqsad qilib qo‘yadi. Jumladan, mahsulotlarni yetishtirish, ularni sotish, yetkazib berish, saqlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, fermer xo‘jaliklarini ishlab chiqarish vositalari, texnika va asbob uskunalar bilan ta‘minlash, ularga moliyaviy va boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish shular jumlasidandir. Tahlillar ko‘rsatishicha, mamlakatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun zaruriy bio-o‘g‘itlarning 50 foizi, chorva mollari uchun ozuqalarning 65 foizi, qishloq xo‘jaligining texnik va yoqilg‘i ta‘minotining 40 foizi aynan kooperativlar tomonidan ta‘minlanadi va go‘sh mahsulotlarining 75 foizi, sut va sut mahsulotlarining 92 foizi ishlab chiqariladi. [6]


Jahon amaliyotida qishloq xo‘jaligi raqobatbardoshligini oshirishda agrosanoat integratsion birlashmalarini tashkil etishning shartnomaviy shaklidan ham keng foydalaniladi. Jumladan, AQShda bu turdagi agrosanoat integratsion birlashmalarida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 30,0 foizi ishlab chiqariladi. Fermer xo‘jaliklari bilan integratsion hamkorlik to‘g‘risidagi shartnomalar odatda yirik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari va savdo kompaniyalari o‘rtasida tuziladi.

Ayniqsa, qisqa muddatda iste‘molga yaroqsiz holatga tushib qoladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha shartnomalar tuzish keng tarqalgan hisoblanadi. Masalan, sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 3-son 2025 yil*

qayta ishlovchi yirik sanoat korxonalari o‘rtasida shartnomaviy kelishuv asosida tuzilgan agro-integratsion birlashmalar tomonidan 95 foiz mahsulot ishlab chiqarilsa, sabzavotlarni qayta ishlashda ushbu ko‘rsatkich 83 foizga teng hisoblanadi. [7]

Qishloq xo‘jaligi raqobatbardoshligini oshirishning jahon amaliyotida keng tarqalgan usullaridan yana biri bu proteksionizm siyosatini amalga oshirish orqali ichki bozorni himoya qilish hisoblanadi. Masalan, Finlyandiya ichki qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorini himoya qilish va maxalliy fermerlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida xorijmamlakatlaridan oziq ovqat mahsulotlarini olib kirish hajmiga tegishli chegaralar o‘rnatilgan bo‘lib, ayrim mahsulotlar uchun katta hajmdagi bojxona to‘lovlari joriy etilgan. Tahlillar ko‘rsatishicha, Yel mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish uchun belgilangan narx siyosati va mahsulotlarni eksport qilishni davlat tomonidan subsidiyalash kabi chora-tadbirlarga ustuvorlik qaratiladi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida esa agrobiznes vakillariga fermer xo‘jaligi joylashgan hududdagi tabiiy-iqlimiy sharoitdan kelib chiqqan holda subsidiyalar ajratiladi.



1-rasm. Agrar sohaga ajratilgan subsidiyalarning YaIMdagi ulushi (2001-2021 yillar bo‘yicha o‘rta hisobda, foizda) [8]

(1-rasmga qarang). Bunda fermer xo‘jaligi joylashgan hududda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish uchun tabiiy-iqlimiy sharoitlar qanchalik noqulay bo‘lsa, shu darajada ko‘proq davlat tomonidan subsidiya ajratilishi ta‘minlanadi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijalariga ko‘ra, 2001-2021 yillarda AQShda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ajratilgan davlat subsidiyalarining YaIMdagi ulushi 39,2 foizga teng bo‘lgan holda, jahonda yetakchi o‘rinni egallaydi. Shuningdek, ushbu ko‘rsatkich Yel mamlakatlari bo‘yicha 25,9 foizga teng bo‘lib, Norvegiya (32,5 foiz) va Buyuk Britaniya (27,2 foiz) kabi mamlakatlarning ko‘rsatkichlari Yel bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori hisoblanadi.

Fikrimizcha, yuqorida bildirilgan fikrlarni inobatga olgan holda keyingi yillarda mamlakatimizda agrar sektorni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlarining ishlab chiqilishi uzoq muddatli istiqbolida milliy qishloq xo‘jaligimizning global raqobatbardoshligi ko‘rsatkichini barqaror oshirib borish va jahonda yetakchi o‘rinlarni egallash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Швец Н. С. Концепция конкурентоспособности регионального агропромышленного комплекса: монография / Н. С. Швец, Ф. З. Мичурина; М-во с.-х. РФ, ФГБУ высшего

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 3-son 2025 yil

- образования «Пермская гос. с.-х. акад. им. акад. Д.Н. Прянишникова». – Пермь: ИПЦ «Прокрость», 2016. – 207 с.
2. Насруллаева Т. Д. Стратегические приоритеты развития кластеров в АПК региона / Т. Д. Насруллаева // Вопросы структуризации экономики. – 2010. – № 1. – С. 174–177.
 3. Грей К. Роль государства в аграрном секторе США // Экономика сельского хозяйства России. – 1997. – № 4. – С. 31–32
 4. Милосердов В. В. Многоукладная экономика АПК: состояние и перспективы // АПК: экономика, управление. – 2012. – № 2. – С. 10–21
 5. Юсупова П.С., Ахмедова Ж.А. Зарубежный опыт достижения конкурентоспособности сельскохозяйственной продукции. Региональные проблемы преобразования экономики, №2, 2019. С.21-27.
 6. Абдиев М. Ж. Основные направления агропродовольственной политики Кыргызской Республики в условиях интеграции в Евразийский экономический союз // Общество и экономика. – 2017. – № 3, 4. – С. 136
 7. БМТнинг Озиқ-овқат ва кишлоқ хўжалиги таъкилотли маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган <http://www.fao.org/faostat/ru/#data>,
 8. <https://www.agroprodmarsh-expo.ru/ru/ui/17151/>

УДК: 331.42

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA AKT SOHASIDAGI ZAMONAVIY ISH BILAN BANDLIKNI OSHIRISHDA KADRLAR TAYYORLASHNING AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЗАНЯТОСТИ В СЕКТОРЕ ИКТ В ПРОЦЕССЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

THE IMPORTANCE OF TRAINING PERSONNEL IN INCREASING MODERN EMPLOYMENT IN THE ICT SECTOR DURING THE DIGITAL TRANSFORMATION PROCESS IN UZBEKISTAN

Zufarova G. Andijon davlat texnika instituti
“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, PhD

Muxtorova B. Andijon davlat texnika instituti
“Iqtisodiyot tarmoqlar va sohalari” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda O‘zbekistonda raqamli iqtisodiy transformatsiya jarayonining rivojlanish tendentsiyalari, ushbu sohaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari va unga to‘siq bo‘lishi mumkin bo‘lgan malakali kadrlar yetishmovchiligi muammolari tahlil qilinadi. Maqolada AKT sohasida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlar soni va axborot-aloha sohasidagi ish haqining yillar kesimida o‘zgarish tendentsiyalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar. Raqamli transformatsiya, global iqtisodiy o‘sish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, malakali kadrlar, kadrlar yetishmovchiligi, AKT sohasi, YaIM dagi ulush, raqamli iqtisodiyot.

В статье анализируются современные тенденции развития процесса цифровой экономической трансформации в Узбекистане, перспективы дальнейшего развития этого сектора, а также проблемы нехватки квалифицированных кадров, которые могут этому помешать. В статье рассматриваются тенденции изменения численности работников